



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 10 | pp. 87-94 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINI TADBIRKORLIKKA JALB ETISH CHORA-TADBIRLARI



Valiev Umid Gulamovich

O'zmilliybank AJ, "Kelajakka qadam"

Markaz direktori o'rinbosari

Email: UValiev@nbu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish jarayonining dolzarb masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari bitiruvchilarning biznes tashabbuslarini amalga oshirishda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatining cheklanganligi, garov ta'minotining yetishmasligi, amaliy biznes ko'nikmalari va innovatsion infratuzilmaning kamligi asosiy to'siqlar ekanini ko'rsatadi. Maqolada davlat dasturlarining samaradorligini oshirish, startup ekotizimini rivojlantirish hamda oliy ta'lim va iqtisodiyot o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: startaplar, moliyalashtirish mexanizmlari, garov ta'minoti, ventchur kapital, oliy ta'lim, tadbirkorlik kompetensiyalari.

Аннотация. В статье проанализированы актуальные вопросы привлечения выпускников высших учебных заведений Узбекистана к предпринимательской деятельности. Результаты исследования показывают, что ограниченный доступ к финансовым ресурсам, недостаточность залогового обеспечения, слабое развитие практических бизнес-навыков и инновационной инфраструктуры являются ключевыми барьерами на пути реализации предпринимательских инициатив выпускников. В работе разработаны предложения, направленные на повышение эффективности государственных программ, развитие стартап-экосистемы, а также усиление интеграции между системой высшего образования и реальным сектором экономики.

Ключевые слова: стартапы, механизмы финансирования, залоговое обеспечение, венчурный капитал, высшее образование, предпринимательские компетенции.

Abstract. This article analyzes the key issues related to engaging university graduates in the Republic of Uzbekistan in entrepreneurial activity. The research findings indicate that limited access to financial resources, insufficient collateral, underdeveloped practical business skills and weak innovation infrastructure constitute the main barriers to the implementation of graduates' business initiatives. The paper proposes a set of measures aimed at improving the effectiveness of state programs, developing the startup ecosystem, and strengthening the integration between higher education institutions and the real sector of the economy.

Keywords: startups, financing mechanisms, collateral, venture capital, higher education, entrepreneurial competencies.

Kirish

Bugungi globallashuv, iqtisodiy liberallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi sharoitida oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifasi mehnat bozorining murakkab talablariga mos, innovatsion kompetensiyalarga ega, strategik fikrlaydigan, tashabbuskor va tadbirkor yosh mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Bu yondashuv nafaqat kadrlar tayyorlashning an'anaviy paradigmasini yangilashni, balki iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun zarur bo'lgan inson kapitalining sifat jihatdan mutlaqo yangi bosqichga ko'tarilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, "Yoshlar biznesi" dasturi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish infratuzilmasining shakllantirilishi, "IT-Park" va texnoparklar faoliyati, yoshlar uchun grant va investitsion rag'batlar tizimining yaratilishi — yosh avlodning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlik muhitiga integratsiyalash va startap-ekotizimni shakllantirish borasida fundamental o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu islohotlar yoshlarning kreativ g'oyalarini iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirish, bilimlarning tijoratlashtirilish jarayonini tezlashtirish va innovatsion iqtisodiyot asoslarini mustahkamlash imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasida tadbirkorlik faoliyatiga qiziqish yuqori bo'lishiga qaramay, ularning biznes g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari hamon yetarli darajada shakllanmagan. Buning asosiy omillari — startaplarning moliyalashtirish manbalariga kirishdagi institutsional cheklovlar, boshlang'ich kapitalning yetishmasligi, moliyaviy boshqaruv ko'nikmalarining sustligi, shuningdek, ta'lim tizimi bilan iqtisodiyotning real sektori o'rtasidagi innovatsion integratsiya mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Bu holat "ta'lim → innovatsiya → biznes" zanjirining to'laqonli ishlamasligiga olib keladi va aksariyat startap g'oyalari laboratoriya darajasida qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Bitiruvchi yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish masalasi esa iqtisodiyotning strukturaviy transformatsiyasi nuqtai nazaridan strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki yoshlar tadbirkorligi orqali nafaqat yangi ish o'rinlari yaratiladi, balki iqtisodiyotga yuqori qo'shilgan qiymat kirituvchi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishi, xizmatlar sohasida diversifikatsiya kuchayishi va hududiy iqtisodiy rivojlanishning tezlashuvi ta'minlanadi. Shu bois oliy ta'lim muassasalari huzurida talabalar startaplarini qo'llab-quvvatlash markazlari, biznes-inkubatorlar, akseleratsiya dasturlari, texnologik transfer bo'linmalari, shuningdek, yoshlar uchun mo'ljallangan venchur, grant va kafolat mexanizmlarini institutsional darajada shakllantirish zarurati dolzarbdir.

Adabiyotlar sharhi

Yaqin yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy faolligini oshirish hamda bandligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga aylangan. Mazkur jarayon nafaqat mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, balki milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini kengaytirish, iqtisodiy tizimning tarkibiy diversifikatsiyasini jadallashtirish va hududlar kesimida barqaror o'sishni ta'minlash nuqtayi nazaridan ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Shu

sababli yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish masalasi iqtisodiy tahlil, davlat siyosati, institutsional rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya chorrahasida turadigan murakkab multidisplinar tadqiqot yo'nalishidir.

Mazkur sohaning nazariy asoslari J. A. Shumpeter tomonidan ilgari surilgan innovatsion rivojlanish konsepsiyasiga tayanadi. Olimning "The Theory of Economic Development" asarida iqtisodiy o'sishning markaziy omili sifatida tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan "ijodiy vayronkorlik" jarayoni talqin etilgan bo'lib, unda innovatsion g'oyalar va startap tashabbuslari iqtisodiy tizimni yangilovchi asosiy mexanizm sifatida qaraladi [1]. Bu yondashuvdan kelib chiqib, yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimi innovatsion iqtisodiyotning barqaror shakllanishida strategik rol o'ynaydi.

Institutsional iqtisodiyot vakillari Douglass North va Ronald Coase o'z tadqiqotlarida iqtisodiy faoliyat samaradorligini belgilovchi omillar sifatida iqtisodiy institutlarning sifat darajasi, tartibga solish tizimining izchilligi, mulk huquqining kafolatlanganligi va tranzaksiya xarajatlarining minimallashtirishini qayd etadi [2]. Ularning nazariyasidan kelib chiqib, yoshlar tadbirkorligi uchun moliyaviy resurslarga kirishni ta'minlovchi institutsional muhitning samaradorligi davlat siyosatining muhim tarkibiy qismidir.

Nobel mukofoti laureati J. Stiglitz va B. Greenwald tomonidan ishlab chiqilgan "o'rganuvchi jamiyat" konsepsiyasida esa inson kapitali, ta'lim tizimi va innovatsion muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Ularning fikricha, davlat dasturlari yordamida ta'lim, texnologiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlarning teng moliyaviy imkoniyatlardan foydalanishi iqtisodiy o'sishning inklyuziv modelini shakllantirish uchun zarur shartlardan biri sifatida qayd etiladi [3].

Xalqaro amaliyotda, xususan, Turkiyadagi KOSGEB, Malayziyadagi SME Corp, Koreyadagi Youth Startup Foundation kabi institutlar yoshlar startaplarini moliyalashtirishda grantlar, subsidiyalari, startap-akselleratorlar hamda davlat ishtirokidagi venchur fondlar orqali sezilarli samaraga erishgan. OECD hisobotlarida ushbu institutlar davlat tomonidan uzluksiz qo'llab-quvvatlanganda yoshlar tadbirkorligining innovatsion faolligi, raqobatbardoshligi va iqtisodiy natijalari keskin ortishi ta'kidlangan [4].

O'zbekiston ilmiy maktabida ham mazkur masala bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. S. G'ulomovning "Moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari va iqtisodiy o'sish omillari" asarida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash jarayonida davlat kafolatlari, imtiyozli kreditlar va sug'urta mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi ilmiy asoslangan [5].

A. Qahhorov davlat-jamiyat-xususiy sektor (PPP) modeli asosida yoshlar startaplarini moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqqan bo'lib, uning tadqiqotlarida yoshlar tadbirkorligining institutsional ekologiyasi, risklarni kamaytirish mexanizmlari va xususiy kapitalni jalb qilish strategiyalari tahlil qilingan [6].

N. Mamadaliyev esa "Yoshlar jamg'armasi" faoliyatining samaradorligini o'rganib, davlat grantlarini taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish, hududiy tengsizliklarni

kamaytirish va yoshlar startaplari uchun moliyaviy infratuzilmalarni kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surgan [7].

Tahlil va natijalar

Yoshlar tadbirkorligi iqtisodiyot rivojlanishining drayveriga, kichik va o'rta biznes hisobiga mahalliy budjetni to'ldirish manbai va innovatsion g'oyalarni amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Mazkur segmentning asosiy xususiyatlari birinchi navbatda innovatsiyaga ochiqlik, ijtimoiy-iqtisodiy noaniq sharoitlarga moslasha olish va tavakkalchilikka asoslangan qarorlarni qabul qilish qobiliyatidir.


Biroq yoshlarning hususan oliy ta'lim bitiruvchilarining o'z biznesini ochish va rivojlantirishda duch keladigan muammolarini ham o'ziga xosligini qayd etish lozim. Biznes g'oyasi mavjud oliygoh bitiruvchilari duch kelayotgan muammolarning muhimlarini aniqlash maqsadida yoshlar tadbirkorligiga bag'ishlangan mahallay va xorijiy nashrlar tahlil qilindi. O'rganishlar asosida yoshlar tadbirkorligini rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammo va tizimdagi bo'shliqlar ikki guruhga ajratish mumkin: shaxsiy yoki motivatsion, professional bilim va tajribaning yo'qligi, me'yoriy xujjatlar bilan bog'liq muammolar.

Birinchisi bu talabalarning ijtimoiy kayfiyat pastligi bo'lib, ularda tavakkal qilish, yangilik yaratishga tayyorlik, tadbirkorlik shijoati va motivatsiyaning zaifligini ko'rsatish mumkin. Ular ko'proq yirik biznes va hususiy sohada faoliyatni davom ettirish yoki davlat xizmatidagi ishlash barqarorligini tadbirkorlik tavakkaliga nisbatan afzal ko'radilar.

Ikkinchi guruhda asosiy muammo sifatida tadbirkorlik sohasida professional va maxsus bilimlar, tajriba va mentorlike tizimi yahshi rivojlanmaganligini qayt etish mumkin. Oliy ta'lim tashkilotlari nazariy baza bersa-da, amaliyotda ko'pchilik bitiruvchilar ishni nimadan boshlashni bilmaydi. Bu asosan ta'lim dasturlari mazmuni va sifati yetarli emasligi bilan bog'liq. An'anaviy ta'lim muassasalari iqtisodiy bilim asoslarini beradi, ammo muvaffaqiyatli tadbirkorlik uchun zarur bo'lgan rag'bat va biznes kompetensiyalarni shakllantirmaydi. Aksariyat oliygoh o'quv dasturlariga tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, yoshlarni biznesga yo'naltirish, ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ani fanlar kiritilmagan.

Bundan tashqari, yurtimizning ayrim hududlarida talabalarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, axborot almashishi, o'z g'oyalarini ishlab chiqishi va mutaxassislardan maslahat olishi mumkin bo'lgan maydonchalar, coworking zonalar yetarli rivojlanmagan. Natijada aksariyat biznes g'oyalar oliygohlar va ilmiy laboratoriyalarda qolib ketmoqda va amaliyotga joriy etilmayapti.

Global Entrepreneurship Monitor Consortium statistik ma'lumotlariga ko'ra dunyo bo'yicha taxminan 300 million yosh yigit-qiz doimiy ish joyiga ega emas yoki umuman ishsiz. Ulardan taxminan 20% o'z biznesini boshlash qobiliyatiga ega, ammo turli sabablarga ko'ra faqatgina 5%i o'z biznesini boshlay olgan.



1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatida yoshlar ulushi

Manba: Global Entrepreneurship Monitor (GEM) hisoboti

“Kelajakka qadam” dasturi doirasida oliy ta’lum tashkilotlarining bitiruvchilari orasida o’tkazilgan so’rovnoma natijalari 1-jadvalda keltirilgan. So’rovnoma 2025 yilning may oyida HEMIS oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi yordamida o’tkazilgan bo’lib, unda 109 ming nafardan ortiq bitiruvchi talaba (respondent) ishtirok etgan. O’tkazilgan so’rovnoma natijalari haqiqatdagi vaziyatni ochiqqlagan deb aytish mumkin. Sababi 2024-2025 o’quv yilini bitirayotgan 260 ming nafar talabadan 42%i bevosita so’rovnomada ishtirok etgan. Bu esa o’tkazilgan so’rovnoma katta miqyosda tashkil qilinganligini hamda ob’ektiv holatga to’g’ri baho berish imkonini yaratdi.


1-jadval

Oliy ta’lum tashkilotlarining bitiruvchilari orasida o’tkazilgan so’rovnoma natijalari

№	Savollar	Berilgan javoblar	So’rovnomaga qatnashgan talabalar soni	
Jami:			109 500	00
1	Oliygo’rni tamomlagandan so’ng maqsadingiz qanday?	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanmoqchiman	12 722	2
a	Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirganmisiz?	Ha tayyor biznesni davom ettiraman	7 851	
b		Ha, biznes rejam bor, biroq moliyaviy mablag’im yetarli emas	2 900	
c		Yo’q, lekin, biznes qilish uchun o’z ustimda ishlamoqchiman	1 971	

Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumoti (01.05.2025y)

Xususan, so'rovnomada berilgan "Oliygo'zni tamomlagandan so'ng maqsadingiz qanday?" degan savolga bitiruvchilarning 12,7 ming nafar (12%)i tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan. Shundan, 7,8 ming nafar (7%)i mavjud (oilaviy, yaqin qarindosh, tanishlarining) biznesini davom ettirishini ta'kidlagan bo'lsa, 2,9 ming nafar (3%)i tadbirkorlik rejasi mavjudligini, ammo moliyaviy mablag' (hususlan garov ta'minoti) mavjud emasligini qayd etgan. Shuningdek, 2,0 ming nafar (2%)i biznes boshlashdan avval tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirishga ehtiyoji borligini ko'rsatib o'tgan.



2-rasm. Tadbirkorlikka jalb etilgan bitiruvchilarga ajratilgan kreditlar (mlrd. so'mda)¹

Manba: Bank ma'lumoti (15.11.2025y)

Tadbirkorlikka jalb etilgan bitiruvchilarga ajratilgan kreditlar miqdori viloyatlar bo'yicha sezilarli farqlanishi bilan ajralib turibdi (2-rasm). Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari hamda Tashkent shahrida kredit hajmi 20 mlrd. so'mdan oshgan bo'lib, talabalarlarni qo'llab-quvvatlash darajasi yuqoriligini ko'rsatadi. Aksariyat viloyatlarda esa 5-11 mlrd. so'm atrofidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lib, kreditlash jarayonining nisbatan sust darajada ekanini bildiradi. Mazkur hududlarda tadbirkorlik tashabbuslari faol qo'llab-quvvatlash zarur ekanligidan dalolat beradi. Umuman olganda, viloyatlar o'rtasida kredit taqsimotidagi tafovutlar iqtisodiy faollik va loyiha tashabbuslarining keskin farq qilmaganligini ifodalaydi.

Takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim bitiruvchilarining tadbirkorlik faoliyatiga kirishish imkoniyatlari iqtisodiy savodxonlik, moliyaviy resurslarga kirish darajasi, institutsional qo'llab-quvvatlash tizimi hamda mehnat bozorining strukturaviy xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Mamlakatda so'nggi yillarda yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, kreditlash jarayonlarining murakkabligi, garov talablarining

¹ Bank ma'lumoti (15.11.2025y)

yuqoriligi, venchur kapital bozorining sust rivojlanganligi va amaliy biznes ko'nikmalarining yetishmasligi ushbu yo'nalishning strategik salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, yosh tadbirkorlar salohiyatini ishga solish uchun oliy ta'lim tizimida tadbirkorlik kompetensiyalarini chuqurlashtirish, bitiruvchilarni bozorga moslashtirilgan iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish va ularning biznes tashabbuslarini moliyalashtirishning barqaror mexanizmlarini yaratish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur ilmiy tahlillar asosida shuni ta'kidlash lozimki, yoshlarning iqtisodiy savodxonligini oshirish nafaqat nazariy dars soatlarini ko'paytirish bilan, balki biznes psixologiyasi, moliyaviy rejalashtirish, startup metodologiyasi, loyiha menejmenti va innovatsion iqtisodiyotga oid amaliy modullarni oliy ta'lim dasturlariga integratsiya qilish orqali ham amalga oshirilishi kerak. Bunday yondashuv iqtisodiy bilimlarni ekstensiv emas, balki intensiv va kompetensiyaga yo'naltirilgan shaklda berishni taqozo etadi. Bu esa bitiruvchilarga biznes tashabbuslarini real iqtisodiy sharoitda baholash, moliyaviy tavakkalchilikni boshqarish, bozor talablarini aniqlash va innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, yoshlar tadbirkorligi uchun qulay biznes muhit yaratish jarayonida me'yoriy-huquqiy talablarni soddalashtirish, ruxsat berish tartib-taomillarini optimallashtirish va bozorga kirish xarajatlarini kamaytirish iqtisodiy faollikni sezilarli darajada oshiradi.

Bundan kelib chiqib, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda dolzarb bo'lgan quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, "Kelajakka qadam" dasturini tijorat banklari o'rtasida keng joriy etish, yoshlar uchun imtiyozli kreditlar, kafolatlar va konsalting xizmatlarini yagona moliyaviy ekotizim doirasida uyg'unlashtirish imkonini beradi; ikkinchidan, oliy ta'lim dasturlariga startup menejmenti, innovatsion iqtisodiyot, raqamli biznes modellar va moliyaviy savodxonlikka doir maxsus modullarni kiritish, talabalarning amaliy biznes kompetensiyasini oshiradi; uchinchidan, yoshlar uchun kafolat jamg'armalarini tashkil etish garov bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etib, moliyaviy inklyuzivlikni kuchaytiradi; to'rtinchidan, biznes-inkubatorlar, akseleratorlar va kovorking markazlari tarmog'ini kengaytirish startaplari uchun innovatsion infratuzilma yaratadi; beshinchidan, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tomonidan amalga oshiriladigan innovatsion loyihalarni davlat grantlari, subsidiyalar va texnopark infratuzilmasi orqali qo'llab-quvvatlash, ularni tijoratlashtirish jarayonini jadallashtiradi; oltinchidan, elektron moliyaviy platformalar, jumladan kraudfanding, p2p kreditlash, onlayn kafolat tizimlaridan keng foydalanish moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qiladi; yettinchidan, venchur fondlar va xususiy investorlar ishtirokini kuchaytirish, yoshlar startaplari yuqori riskli, biroq yuqori rentabelli kapital bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Yosh tadbirkorlar o'z biznes loyihalarini amalga oshirishda "ertangi kunga ishonch" muhitining mavjudligi, makroiqtisodiy barqarorlik, siyosiy izchillik va institutsional ishonchlilik bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, iqtisodiy muhitning prognoz qilinishi, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va barqaror tartibga solish mexanizmlarining mavjudligi yoshlar tadbirkorligi ekotizimining rivojlanishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim, biznes va davlat sektorlarining o'zaro

integratsiyasi asosida shakllantiriladigan kompleks qo'llab-quvvatlash tizimi mamlakatda global raqobatbardosh startap ekotizimini yaratish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va inovatsion iqtisodiyotning institutsional ta'minotini mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 2025-yil 12-iyuldagi "Yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5124-sonli Prezident qarori.
2. 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-60-sonli Prezident qarori.
3. 2025-yil 14-fevraldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-61-sonli Prezident qarori.
4. 2025-yil 14-fevraldagi "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-62-sonli Prezident qarori.
5. Schumpeter, J. The Theory of Economic Development. Harvard University Press 1934y.
6. North, D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press 1990y.
7. Stiglitz, J. Creating a Learning Society. Columbia University Press 2016y.
8. Youth Entrepreneurship and Access to Finance. OECD Publishing 2022y.
9. G'ulomov S. Moliyalashtirishning zamonaviy usullari va iqtisodiy o'sish omillari. T.: Fan. 2018y.
10. Qahhorov A. Tadbirkorlikni moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlari. T.: Iqtisodiyot. 2020y.
11. Mamadaliyev N. Yoshlar jamg'armasi faoliyatida moliya resurslarini boshqarishning samaradorligi. T.: Iqtisodiy tahlil. 2021y.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

